MUSTAQILLIK BAYRAMINGIZ MUBORAK BO‘LSIN!

KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA’NAVIY-MA’RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 37 (567) 2025-YIL, 30-AVGUST

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



Bu yil Prezident qaroriga ko‘ra, mustaqilligimizning shonli 34 yillik to‘yi munosabati bilan tashkil etiladigan har bir tadbir “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan hayotbaxsh g‘oya ostida nishonlanadi.

Mana 34 yildirki yurtimizning barcha go‘shalarida eng ulug‘, eng aziz bayramimizni xalqimiz ko‘tarinki kayfiyat, ulkan yutuqlar bilan qarshi oladi.

Shu kunlarda qaysi mahalla, qishloq, jamoa, shahar va tumanga bormang Mustaqillik bayrami fleshmoblar, sevimli san’atkorlar ishtirokidagi konsert dasturlari, sportchilarning ko‘rgazmali chiqishlari va teatrlashgan badiiy chiqishlar namoyishlari bilan munosib nishonlanmoqda.

Albatta bunday bayramlar tinch va osuda yurtda bo‘ladi. Bu yurt, vatan haqida gapirilganda uni qadri haqida to‘xtalib o‘tish joiz.

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam Madinai munavvaraga hijrat qilganlarida Makkai mukarramani eslab: “Agar qavmim meni Makkadan chiqib ketishga majbur qilmaganida, hecham o‘z ixtiyorim bilan uni tashlab ketmagan bo‘lar edim”, - deganlar. Demak, vatanni sevish, undagi bor narsalarni ardoqlab, sog‘inib yashash insoniyat fitratida mavjud bo‘lgan nozik his-tuyg‘udir.

Alloma Alixonto‘ra Sog‘uniy hazratlarining quyidagi so‘zlari Ona Vatanni sevgan har bir kishining qalbida g‘ayrat va shijoat uyg‘otadi: «Har bir kimsaga ma’lumdirki, hayot olamida insonning eng sevgan, qadrli, qimmatli to‘rt narsasi bordur. Bu to‘rt narsaga ega bo‘lmagan kishilar insonlik sharafidan mahrum bo‘lurlar. Ular: ozodlik va erkinlik, mehnat bilan topilgan molga o‘zi egalik qilmog‘i, tug‘ilib o‘sgan Ona Vatani hamda asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelayotgan muqaddas dini».

Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va fidoyiligi vatanni himoya qilishi, yurt taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda elning tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo‘shish bilan o‘lchanadi.

Bugun har bir vatanparvarman degan inson qalbi Ona Vatanga muhabbat, sadoqat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlamog‘i kerak.

Mustaqillik – eng ulug‘, eng aziz ne’mat va eng aziz bayram. Hurriyatparvar ota-bobolarimizning asriy orzusini amalga oshirgan, xalqimizning tenglar ichra teng bo‘lish huquqini yuzaga chiqargan, shuningdek, milliy o‘zlik, qadr-qimmat va qaddimizni tiklagan muborak kun demakdir. Bu kun tarix solnomasida yangi davrni boshlab bergani bilan ham qadrlidir.

Istiqlol tufayli mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga hamda o‘z so‘ziga ega bo‘ldi. Atrofga bir nazar solaylik, yoshlarimiz tomonidan sport, san’at, madaniyat va yana ko‘plab sohalarda erishilayotgan ulkan zafarlar, yutuqlarning bari mustaqillik sharofati, istiqlol ne’mati bilan hamohanglik kasb etadi. Darhaqiqat, mamlakatimizning 34 yillik rivojlanish, taraqqiyot yo‘lida ulkan bunyodkorlik ishlari, barcha sohalardagi tub islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlarni ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqillik – ulug‘ ne’mat, uni asrab avaylashimiz, mamlakatimizning buguni va ertasi yanada porloq bo‘lishida munosib hissa qo‘shishimiz lozim bo‘ladi.

BAYRAM TADBIRI BO‘LIB O‘TDI



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialida O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi, “Aktual TV media” MCHJ va “Adolat mezoni” gazetasi hamkorligida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori ostida “Mustaqillik – buyuk va bebaho ne’mat” mavzusida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni hududiy filial kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi O‘g‘iloy Ziyayeva ochdi va ishchi-xodimlarni bayram bilan qutladi. O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Andijon viloyat bo‘limi raisi M.Artiqova, O‘zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a’zosi “Aktual TV media” MCHJ rahbari Abduvali Qurbonovlar mustaqillikni asrab-avaylash, Ona Vatanga sadoqat, yurtimizda olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari va bunda soha xodimlarini hissasi haqida to‘xtalib o‘tdilar. Insonning o‘z xalqiga bo‘lgan sadoqati va vatanni himoya qilishi, yurt taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo‘lishi hamda elning tinch va farovon hayot kechirishiga imkon darajada hissa qo‘shish bilan o‘lchanishini ta’kidladilar.

Tadbirda ishtirokchilarga O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyihasi doirasida maxsus sahifasi chop etilgan 35-soni bepul tarqatildi.

D.ABDUMAJIDOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

TARAQQIYOT YO‘LIDAGI TO‘SIQ

Korrupsiya! Bu so‘z xalq tilida qachondan qo‘llana boshladi? Qachondan boshlab ishimizni hal qilish uchun kimlargadir pora berishga odatlanib qoldik? Eng achinarlisi, bu savollarga aniq javob topish mushkul. Biroq bir haqiqat ravshanki, korrupsiya jamiyatda ildiz otaversa, taraqqiyot, adolat va halollik haqida gapirishning o‘zi quruq shior bo‘lib qoladi.

Bugun odamlar orasida



“falonchi pora bilan qo‘lga tushibdi”, “xizmatini bersa, hal qilib berarkan” degan gaplar ommalashib ketdi. Bu esa oddiy xalqning davlat tizimiga bo‘lgan ishonchini yemirmoqda. Aslida esa, har qanday jamiyatning tayanchi – adolatdir. Adolat yo‘qolsa, ishonch ham yo‘qoladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – faqat jinoyatchini qo‘lga olish emas, balki uning ildizini quritishdir. Buning uchun avvalo davlat xizmatchilarining mehnatini munosib qadrlash, ularning maoshini yetarli darajada belgilash, ortiqcha yuklardan holi qilish lozim. Chunki halol mehnati evaziga yashash imkoniyati yaratilmasa odam ko‘pincha noto‘g‘ri yo‘lni tanlashga moyil bo‘lib qoladi.

Mana, yaqinda yana bir katta mansabdor pora bilan qo‘lga tushgani haqida xabar tarqaldi. “Oddiy xalqqa halol yashashni targ‘ib qilib, o‘zi bu so‘zlarni chetlab o‘tgan ekan”, degan gaplar xalq orasida keng tarqalmoqda. Odamlarning noroziligi kuchayib borayotgani – bu jamiyat uchun jiddiy xavfdir. Chunki fuqarolarda ishonch bo‘lmasa taraqqiyot ham, barqarorlik ham bo‘lmaydi.

Shu bois, korrupsiyaga qarshi kurashish – barchamizning burchimizdir. Har bir fuqaro halollikni hayotiy mezonga aylantirsa, mansabdorlar esa poklikni ustuvor tamoyil deb bilsa, jamiyatimizda bu illat ildiz otolmaydi. Axir, xalqimiz bekorga: “Halollik – eng katta boylik” demagan.

Muhammad Rasul MAMATQULOV, jamoatchi muxbir.

Jamiyatning rivojlanishi, xalqning farovonligi va kelajakning porloqligi adolat va halollikka tayanadi. Agar adolat yo‘qolsa, taraqqiyotning ildizi quriydi. Aynan shunday yashirin illat — korrupsiya, bugun butun dunyo davlatlari uchun eng katta xavfga aylangan.



BUGUN PORAGA YO‘Q DESAK...

Korrupsiya nimani buzadi?

Korrupsiya nafaqat moliyaviy zarar keltiradi, balki jamiyatning ichki tuzilishini ham yemiradi. U: adolatni o‘ldiradi, xalqning davlatga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi, yoshlarni mehnatdan ko‘ra pul va tanish-bilish orqali natijaga erishishga o‘rgatadi.

Bir o‘quvchi imtihonni pora bilan topshirdi, deylik. U bilimsiz holda oliy o‘quv yurtiga kiradi. Keyinchalik esa lavozimni ham halol yo‘l bilan emas, pora orqali egallaydi. Bunday inson xalq uchun emas, faqat o‘z manfaatlari uchun xizmat qiladi. Natijada jamiyatda bilimli yoshlarning haqqi poymol bo‘ladi, taraqqiyot orqaga ketadi.

Halollik — taraqqiyotning poydevori

Har qanday muvaffaqiyatning siri halol mehnatda. Halollik — millatning eng katta boyligi, jamiyatni taraqqiyot sari yetakladigan yagona kuchdir. Agar bugun yoshlarimiz imtihonda, kundalik hayotda, ishda halollikni tanlasa, ertaga ular jamiyatning halol rahbarlari, adolatli mutaxassislari bo‘lib yetishadi. “Halollikdan yuksalgan odamni hech bir kuch yiqita olmaydi” degan hikmat bejiz emas.

Nega korrupsiya taraqqiyot dushmani?

Korrupsiya bo‘lgan joyda iste’dod qadrsizlanadi. Pora ishlagan joyda adolat yo‘qoladi. Pora tufayli davlat resurslari noto‘g‘ri taqsimlanadi. Eng muhimi — xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchi so‘nadi.

Misol uchun, korrupsiya ildiz otgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sekinlashadi, yoshlarning qobiliyati qadrlanmaydi, odamlar “halol ishlasam ham baribir natija yo‘q” degan tushkunlikka tushadi. Bunday jamiyatda taraqqiyot bo‘lishi mumkinmi? Albatta, yo‘q.

Xulosa

Korrupsiya — yashirin dushman va taraqqiyotga g‘ov. Uni yengish uchun faqat davlat organlari emas, balki har bir fuqaro mas’uldir. Halollikdan boshlanadigan kurash — eng buyuk qudratdir.

Bugun poraga yo‘q desak, ertaga farzandlarimiz halol jamiyatda, yorug‘ kelajak sari dadil qadam tashlaydi.

Nafisaxon XALIMOVA, jamoatchi muxbir.



JAMIYAT KUSHANDASI

Bugun dunyoning qaysi burchagiga nazar tashlamaylik, korrupsiya degan illat har bir jamiyatning tomiriga singib borayotgani sir emas. U faqatgina biror tizimni emas, balki butun millatning kelajagini xavf ostiga qo‘yadi. Chunki korrupsiya – bu adolatning yemirilishi, ishonchning sinishi demakdir.

Korrupsiya haqida ko‘p gapiramiz. Har kuni ommaviy axborot vositalarida o‘qiymiz, eshitamiz, ko‘ramiz va ijtimoiy tarmoqlarda kuzatamiz. Biroq hech o‘zimizdan so‘raganmizmi, shu illatga qarshi bizning o‘z hissamiz bormi? Yolg‘on gapirmaylik – ba’zida ishimiz bitsin deb o‘zimiz ham shu yo‘lga kirib qolamiz. Aslida esa muammo shundan boshlanadi.

Butun dunyoda korrupsiya bilan kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida ko‘rib kelinmoqda. Chunki, biror mamlakat taraqqiy etishi uchun, eng avvalo, shaffoflik va qonun ustuvorligi ta’minlanishi kerak. Mamlakatimizda ham Prezidentimiz tomonidan maxsus agentliklar tashkil etilgani, shaffoflik bo‘yicha qonunlar qabul qilingani, davlat xizmatlari elektron tizimga o‘tkazilgani shundan dalolat beradiki, endi korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan.

Ammo bir savol tug‘iladi: qonunlar yozildi, dasturlar qabul qilindi, shunda ham muammo yo‘qoladimi? Albatta, yo‘q. Chunki korrupsiya bilan kurash – faqat davlatning vazifasi emas, bu butun jamiyatning mas’uliyatidir. Har birimiz “mayli, shunaqada” deb ko‘z yumishni bas qilsak, ishimizni pul bilan bitirishni odat deb bilmasak, shundagina natijaga erisha olamiz.

Haqiqiy o‘zgarish odamlar ongidan boshlanadi. Bolalarga halollik qadriyat sifatida singdirilishi kerak. Ota-onalar, ustozlar, mutasaddi tashkilotlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, korrupsiyaga joy qolmaydi. Chunki jamiyatda halollik, adolat ustun bo‘lsa, xalq ishonchi mustahkam bo‘ladi, taraqqiyot esa tabiiy jarayonga aylanadi. Bugun shuni anglashimiz kerak: korrupsiyaga qarshi kurashish – bu faqat rasmiy shior emas, balki bizning kelajagimiz uchun kurashdir. Agar har birimiz bu yo‘lda mas’uliyatni o‘z zimmamizga olsak, ertangi kunimiz yanada yorqin bo‘lishiga shubha yo‘q.

Sevara ALIMOVA.

«NOTARIUS MASLAHATI» SAHIFASI

OLDI - SOTDI SHARTNOMASI NING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI NIMALARDAN IBORAT?

Hozirgi kunda mamlakatimizda tadbirkorlikka keng imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Shuning bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o‘sib bormoqda. Tadbirkorlikka oid munosabatlarda shartnoma alohida ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, shartnoma turlari bir qancha hisoblansa-da, har bir shartnoma turi boshqasidan ayrim jihatlari bilan farqlanib turadi. Quyida oldi-sotdi shartnomasi hamda mahsulot yetkazib berish shartnomasining farqiga to‘xtalib o‘tamiz.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to‘lash majburiyatini oladi.Qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan avtomototransport vositalarining oldi-sotdi shartnomasi notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan hollar bundan mustasno.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 387-moddasi talabiga ko‘ra oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha har qanday ashyolar ushbu Kodeksning 82-moddasi qoidalariga rioya qilgan holda tovar bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 437-moddasiga ko‘ra, Mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi — sotuvchi shartlashilgan muddatda yoki muddatlarda o‘zi ishlab chiqaradigan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchiga tadbirkorlik faoliyatida foydalanish uchun yoki shaxsiy, oilaviy maqsadlarda, ro‘zg‘orda va shunga o‘xshash boshqa maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi bir yilga, bir yildan ortiq muddatga (uzoq muddatli shartnoma) yoki taraflar kelishuvida nazarda tutilgan boshqa muddatga tuzilishi mumkin.

Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasida uning amal qilish muddati belgilanmagan bo‘lsa, shartnoma bir yilga tuzilgan deb hisoblanadi.

Uzoq muddatli shartnoma taraflaridan biri yetkazib berilishi lozim bo‘lgan tovarlar miqdorini yoki shartnomaning boshqa shartlarini keyingi davrlar uchun shartnomada belgilangan tartibda kelishib olishni rad qilgan yoki undan bosh tortgan taqdirda boshqa taraf tegishli davrlarda tovarlarni yetkazib berish shartlarini belgilash to‘g‘risidagi yoxud shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

G.MATKARIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

MEROS GUVOHNOMASINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBINI BILASIZMI?

Meros fuqaroning o‘limi yoki uning sud tomonidan vafot etgan deb e’lon qilinishi oqibatida ochiladi.

Vazirlar Mahkamasining 726-son bilan 2020-yil 18-noyabrda tasdiqlagan Notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomani berishning ma’muriy reglamentida notariuslar tomonidan merosga bo‘lgan huquq to‘g‘risida guvohnomalar berish tartibi belgilangan.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlar notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Guvohnoma berish notarial idora binosidan tashqarida bajarilsa, hujjatning matnida guvohnoma rasmiylashtirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va guvohnoma berishni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va videoga qayd etiladi.

Guvohnomani rasmiylashtirish jarayonini audio va videoga qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to‘liq tushirilishi shart. Bunda, notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib murojaat qiluvchi(lar)ga tushuntirib berilganligi hamda hujjat matni bilan murojaat qiluvchi(lar) to‘liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini ”Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoga qayd etilishi lozim. ”Notariat to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi. Agar guvohnoma berish murojaat qilgan shaxs tushunmagan yoki yaxshi bilmagan tilda bajarilsa, unda hujjat matni notarius yoki murojaat qilgan shaxs taklif etgan tarjimon tomonidan og‘zaki tarjima qilinishi mumkin. Bu haqda hujjat matnida kim tomonidan tarjima qilinganligi, shaxsini tasdiqlaydigan hujjatning nomi, uning raqami, berilgan sanasi va shu hujjatni bergan organning nomi hamda matn mazmuni tushuntirilganligi ko‘rsatilishi kerak. Bunday holda murojaat qilgan shaxs o‘zi biladigan tilda ismi, familiyasi, otasining ismini to‘liq yozib, imzo qo‘yadi. Murojaat qiluvchi notarial idoraga o‘zi kelib yozma ariza bilan yoki my.gov.uz yoki e-notarius.uz axborot portallari orqali ro‘yxatdan o‘tgan holda elektron tarzda murojaat qiladi. Murojaat qiluvchi notarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi, ular ham bo‘lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Meros ochilgan joydagi notarius merosxo‘r(lar)ning yozma arizasiga ko‘ra guvohnoma beradi.

R.KARIMOVA,
Paxtaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

FUQARO TIRIK EKANLIGI FAKTINI TASDIQLASH SHAXSIY ILTIMOSIGA KO‘RA AMALGA OSHIRILADI?

Notariuslar kundalik ish faoliyatida shartnoma va bitim, ariza va vasiyatnoma hamda meros guvohnomalaridan tashqari ayrim faktlarni tasdiqlash vakolatiga ega. Masalan, fuqaroning tirik ekanligi faktini, fuqaroning muayyan joyda ekanligi fakti, fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini, hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlash, yuridik shaxsning rahbar organi tomonidan qaror qabul qilinganligi faktini tasdiqlash kabi notarial harakatlar bor.

Notarius fuqaroning tirik ekanligi faktini uning shaxsiy iltimosiga ko‘ra va uning ishtirokida tasdiqlaydi.

Notariuslar yoki notarial harakatni amalga oshiruvchi boshqa shaxs bitimlarni tasdiqlashda bitimlar, shartnomalar, vasiyatnoma, ariza va boshqalar matnini tayyorlab unga fuqarolar imzo qo‘yadilar va notarius uni tasdiqlovchi yozuvlar bilan tasdiqlaydi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Voyaga yetmagan shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlash uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, vasiylar, homiylar), shuningdek uni o‘z homiyligiga olgan tashkilotning yozma iltimosiga ko‘ra amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda notarial harakatlar notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida amalga oshiriladi.

Notarial faoliyat to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularga ishlov berish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish hamda notarial harakatlarni amalga oshirishga aloqador davlat organlari bilan axborot hamkorligining barcha turlarini ta’minlash uchun mo‘ljallangan axborot tizimi Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidir.

Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga tegishlidir.

Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimidan notarial idoraga yuborilgan elektron murojaatni olish uchun ham foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga notariuslarning kirishini ta’minlaydi.

Notariuslar tomonidan Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlar kiritilishi notarial harakatlarni amalga oshirishning maxfiyligini oshkor etish hisoblanmaydi.

Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma’lumotlarni kiritish notariuslar tomonidan amalga oshiriladi.

Notarial harakat yakuniga yetgach, notarius murojaat qilgan shaxsga fuqaroning tirik ekanligi holatini tasdiqlovchi guvohnoma beradi.

D.XATAMOVA,
Izboskan tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

O‘zbekiston Respublikasining “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunining 23-moddasida mediatorlik vazifasini bajarish notariuslar tomonidan amalga oshiradigan notarial harakatlar turiga kiradi.

NOTARIUS TOMONIDAN MEDIATOR VAZIFASINI BAJARISH TARTIBI QANDAY?

61-1-moddasida notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo‘yicha o‘zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritishi, taraflar mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijalaridan kelib chiqadigan nizoni yoxud majburiyatlarni bajarish shartlari va muddatlari xususida o‘zaro maqbul qarorga erishgan taqdirda, notarius taraflar o‘rtasida tuzilgan mediativ kelishuvni tasdiqlashi belgilangan.

Notarius fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan mulkiy va meros masalalari bo‘yicha o‘zaro maqbul qaror qabul qilish uchun taraflarning ixtiyoriy roziligi asosida nizoda mediator sifatida ish yuritadi. Notarius faqat notariuslar tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlar yuzasidan kelib chiqqan nizolar bo‘yicha mediator vazifasini bajaradi. Taraflar va mediator mediatsiya ishtirokchilari hisoblanadi. Jismoniy shaxslar ham, yuridik shaxslar ham mediatsiya taraflari bo‘lishi mumkin.

Notarius asosan quyidagi nizolar bo‘yicha: Oilaviy nizolar (er-xotinning mol-mulkini bo‘lish); meros bilan bog‘liq nizolar (meros mol-mulkini taqsimlash, merosxo‘rlar o‘rtasida ulushlarni bo‘lish va boshqalar); boshqa nizolar (pul majburiyatlari, mulkni topshirish majburiyatlari, qarz majburiyatlari, garov munosabatlari bo‘yicha majburiyatlar) mediativ kelishuvni tasdiqlaydi.

Mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish uchun taraflar o‘zaro kelishuvga ko‘ra notarial harakatni amalga oshirgan notariusga yoki boshqa notariusga murojaat qilishi mumkin. Manfaatdor taraf nizoning ikkinchi tarafiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar mazmunini izohlagan xolda notariusga kelishuv tartib-taomilini qo‘llash haqida ariza bilan murojaat etadi. Agar taraflar notariusga nizolashayotgan masala bo‘yicha mediatsiyani qo‘llash haqida birgalikda murojaat qilsalar, ular ushbu masala bo‘yicha mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishga roziligi haqidagi o‘zlari tuzgan yozma shakldagi kelishuvni notariusga taqdim etishlari kerak bo‘ladi.

Notarius mediativ kelishuvni tasdiqlashdan oldin mediatsiya tartib-taomili amalga oshiradi, bunda bir vaqtning o‘zida ham taraflarning barchasi bilan, ham taraflarning har biri bilan alohida-alohida uchrashuvlar o‘tkazadi, ularga nizoni hal etishga doir og‘zaki va yozma tavsiyalar beradi, mediatsiya boshlanguniga qadar mediatsiya taraflariga mediatsiyaning maqsadini, shuningdek ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

J.FAYZIYEV,
Asaka tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

«ANDIJON BIOKIMYO ZAVODI»
АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИЯТИ ЖАМОАСИ

ушбу файзли кунларда барча юртдошларимизни
энг улуғ, энг азиз байрам

ВАТАНИМИЗ МУСТАҚИЛЛИГИНИНГ 34 ЙИЛЛИГИ

муносабати билан муборакбод этади.

Давлатимиз равнақи, юртимиз
ободлиги йўлида олиб бораётган
ишларингизда улкан
муваффақиятлар тилайди!



«SMS-PENSIYA» XIZMATIGA TELEFON RAQAMINGIZNI ONLAYN ULASHINGIZ MUMKIN

Hurmatli pensionerlar!

Bugungi kunda siz **my.gov.uz** portali orqali onlayn «SMS-PENSIYA» xizmatiga ulanishingiz, telefon raqamingiz o‘zgargan bo‘lsa yangi raqamingizni kiritishingiz mumkin.

Telefon raqamingizni mazkur xizmatga ulaganingizdan so‘ng **@pensiyauzbot** boti orqali pensiyangiz miqdori to‘g‘risida ma’lumot olishingiz mumkin.

Xizmatdan foydalanish uchun havola: **https://my.gov.uz/uz/service/1139**

Eslatma: ***Mazkur xizmatdan faqatgina pensiyaga chiqqan fuqarolar foydalanishlari mumkin.***

PENSIYA SAVOLLAR VA JAVOBLARDA

Pensiya oluvchilar ro‘yxatida borligingiz haqida ma’lumotnoma qanday olinishini bilasizmi?

Mazkur ma’lumotnomani olish uchun hech qayerga murojaat qilmasdan turib, my.gov.uz portali orqali istalgan vaqtda onlayn murojaat qilishingiz mumkin.

******

Bolani parvarishida bo‘lish (dekret) davri ish stajini hisoblash qanday aniqlanadi?

Ma’lumki, bola 3 yoshga to‘lgunga qadar, bolani parvarishlash ta’tillarida bo‘lish vaqti, biroq jami ko‘pi bilan 6 yil ish stajiga qo‘shilishi qonunchilikda belgilangan.

Bu nima degani?

Misol uchun, ayol kishining 30 yil mehnat staji davomida 3 nafar farzandi uchun ish stajining 8 yili mobaynida parvarishlash (dekret) ta’tillarida bo‘lgan bo‘lsa, u holda fuqaroga pensiya tayinlash uchun ish staji hisoblashda jami 28 yil ish staji hisoblanadi.

Ya’ni, 30 yil - 8 yil + 6 yil = 28 yil.

Eslatma: Bolani parvarishlash ta’tilida bo‘lish davri (shu jumladan, puli to‘lanadigan ta’tilda bo‘lish) yoshga doir imtiyozli pensiya olish huquqini beradigan maxsus ish stajiga qo‘shilmaydi.

Sh.TURAKULOV,
Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi
Shahrixon tumani bo‘limi boshlig‘i.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳри, Бобур МФЙ, Туклик кўчаси, 22-уйда яшаб, 2018 йил 16 ноябрь куни вафот этган марҳум **ШАРИПОВА ОФТОБХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 26/24-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Эски Итифоқ кўчаси, 85-уйда яшаб, 1997 йил 27 июнь куни вафот этган марҳум **ИКРАМОВ РАХМАТУЛЛО**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Мустақиллик шоҳкўчаси, 6-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Қ.Э.Абдураҳмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 18 март куни вафот этган марҳум **ИШМАТОВ НАСИБЖОН ТУРСУНБАЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Роввот МФЙ, Ойдин йўл кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 30 ноябрь куни вафот этган марҳум **TOJIBOYEV TURSUNBOY JUMABOYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1990 йил 7 июль куни вафот этган марҳум **ИСМОИЛОВ ОКТАМЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Номозгох МФЙда яшаб, 2025 йил 26 июлда вафот этган марҳум **ҚОБИЛОВ МУМИН ЗОКИРОВИЧ**,

Шаҳрихон тумани, Маслахаттепа МФЙда яшаб, 2024 йил 24 сентябрда вафот этган марҳум **БОЗОРОВ ИСРОИЛ АКБАРОВ**,

Шаҳрихон тумани, Пахтакор МФЙда яшаб, 2023 йил 15 июнда вафот этган **BOXODIRJON KIPCHAQOVICH BOZORBOYEV**,

Шаҳрихон тумани, Дўлан МФЙда яшаб, 2013 йил 26 апрелда вафот этган марҳум **TOXIRJON ZOKIROV**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қушқўноқ МФЙда яшаб, 2024 йил 24 сентябрда вафот этган марҳум **FAXRIYOR MAMASOLIYEVICH KODIROV**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS:
«Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir:
M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili:
Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 26.08.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 26.08.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li